



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**



**BUXORO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT
MARKAZI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA
HAMKORLIK TA’LIMI MASALALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY ONLINE KONFERENSIYASI**

MATERIALLARI



BUXORO-2024-yil. 27-noyabr

muhim strategiyasidir. Ushbu yondashuv ularning bevosita terapevtik ehtiyojlarini va uzoq muddatli hissiy, ijtimoiy va akademik o'sishini qo'llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bennett, P., & Shaw, M. (2021). Speech Therapy and Psychological Support: A Dual Approach to Treatment. *Child Therapy and Development*, 9(1), 32-47.
2. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova “Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi”. Toshkent 2016 –yil.
3. Hughes, J., & Richards, T. (2020). Integrating Psychocorrection and Speech Therapy for Emotional and Behavioral Development. *Pediatric Developmental Review*, 18(2), 45-58.
4. Kuzmina, O. (2018). Cognitive Behavioral Approaches in Logopedic Work with Children. *Psychology and Education Journal*, 14(3), 67-79.
5. Petrov, V. (2020). Behavioral Therapy and Speech Development in Children with Speech Disorders. *Child Behavioral Health Journal*, 27(5), 102-115.
6. “Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion logopedik ish” o'quv – uslubiy majmua.

**MAHMUD XO‘JA BEHBUDIYNING HAYOTI VA FAOLIYATI, TA’LIMIY
QARASHLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR**

*Olimov Sh.Sh. - Buxoro davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori.*

*Rahmonov K. J. -Buxoro davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari nomzodi.*

Mazkur maqolada Turkiston jadidlarining otasi bo'lgan Behbudiyning ma'rifiy, pedagogik va ta'limiy qarashlari tarixiy manbalar hamda matbuot materiallari asosida bayon etiladi. Shuningdek, maqoladan Behbudiyning hayoti va uning so'nggi taqdiri bilan bog'liq mulohazalar ham o'rin olgan.

В этой статье излагаются образовательные, педагогические и учебные взгляды Бехбуди, отца туркестанских джадидов, на основе исторических источников и материалов прессы. Также в статье рассматриваются размышления о жизни Бехбуди и его судьбе в конце жизни.

**“YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA HAMKORLIK TA’LIMI MASALALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

Respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. 27-noyabr. 2024-yil

This article presents the educational, pedagogical, and teaching views of Behbudi, the father of Turkestan Jadids, based on historical sources and press materials. The article also includes reflections on Behbudi's life and his final fate.

Kalit soʻzlar: axloqiy taʼlim, teatr truppalari, didaktik prinsiplar, globus, memorandum, vaqf idorasi rahbari, diskriminatsiya siyosati, “Samarqand komissiyasi”.

Ключевые слова: моральное образование, театральные труппы, дидактические принципы, глобус, меморандум, глава администрации вакфа, политика дискриминации, "Самаркандская комиссия".

Keywords: moral education, theater troupes, didactic principles, globe, memorandum, head of the waqf administration, discrimination policy, "Samarkand Commission."

Oʻrta Osiyo allomalarining taʼlimiy-axloqiy qarashlarida maʼnaviyat, axloq, tafakkur masalalari mazmunan boy, shaklan gʻoyat rang-barangdir. Turkiston xalqi tarixida axloqiy taʼlim doimo rivojlanib, takomillashib borgan. Ushbu allomalarimizning ilmiy ishlarini keyingi davr yaʼni XVI-XX asrlar davomida unga salmoqli hissa qoʻshgan Turdi va Mashrab, Gulxaniy va Munis Xorazmiy, Muqimiy va Furqat, Ahmad Donish, Hamza Hakimzoda Niyoziy, M.Behbudiy, Avaz Oʻtar va boshqa qator allomalar haqida ham bunday fikrlarni bayon qilish mumkin. Ularning maʼnaviy-maʼrifiy, axloq-odob haqidagi fikrlarini oʻrganishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda axloq-odob taʼlimidan tashqari xalqimizning qadimiy urf-odatlar va udumlari, anʼanalari ham oʻz aksini topgan.

Jumladan, M.Behbudiyning taʼlimiy-axloqiy qarashlarida insonning maʼnaviy barkamol shaxs egallashi zarur boʻlgan talablariga ilmdan orttirilgan xislat, ichki va tashqi koʻrinishdan topilgan haqiqat, aql tufayli hosil qilingan xulq-atvor, mol-mulkdan ham ziyoda boʻlgan salomatlik hisoblangan. Bu talablar hozirgi davrda ham barkamol shaxs tarbiyasida mardlik, toʻgʻrilik, adolatparvarlik, vafodorlik, halollik saxiylik, mehr-oqibat, insonparvarlik xislatlarini tarbiyalashda muhim manba sanaladi.

Turkiston jadidlarining otasi boʻlgan Behbudiyning maʼrifiy qarashlari bu davrda yetakchi gʻoya sifatida shakllandi va oʻz navbatida safdoshlari uchun dasturulamal boʻlib xizmat qildi. Behbudiy millatning koʻzini ochish, asriy qullik iskanjasidan ozod etish, yoʻllarini avvalo xalq maʼnaviy jihatlarini oʻstirish bilan bogʻladi. Birinchidan, diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal oʻqitadigan yangi jadid maktablari tashkil etib, millatning kelajagi boʻlgan farzandlarni komillik

**“YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA HAMKORLIK TA’LIMI MASALALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

Respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. 27-noyabr. 2024-yil

darajasiga ko‘tarish. Ikkinchidan, gazeta, jurnallar tashkil etib, xalq ongini oshirish. Uchinchidan, teatr truppalari tashkil etib, xalqning madaniy darajasini oshirishni maqsad qilib oldi. [1]

Behbudiyning yana bir katta fozillik jihati va faoliyati shunday ediki, u faqatgina musulmon dunyosi g‘oyalari bilan cheklanib qolmadi, balki umumbashariy qarashlar bilan ham qurollanib yuksak ma‘rifiy cho‘qqiga ko‘tarildi. U Sharqning fozillik, donishmandlik g‘oyalari bilan g‘arbning ishchanlik, serg‘ayratlilik faoliyatini uyg‘unlashtirish tarafdori bo‘ldi. Bu ikki ilg‘or xislatning birlashuvi esa yuksak, fozil jamiyat barpo etishning garovi hisoblanadi.

Ma‘naviy takomilning asl manbai, eng avvalo, ta‘lim-tarbiyadir. Bu tushunchalar inson dunyoqarashining barcha ma‘naviy jabhalarini qamragan g‘oyat yuksak va ko‘lamli hodisadir. Zotan, inson takomili borasidagi barcha ilmu urfon ta‘lim-tarbiya manbai bo‘lgan maktab-maorif orqali amalga oshadi, hayotga tadbiq etiladi. Jamiyat taraqqiyotiga, rivojiga, inson hurligiga eng avvalo, yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan farzandlar kamoli orqali erishiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlarida esa komil farzandlar tarbiyasi yuqori o‘rinda turadi. U bu ishni dastlab, usuli jadid deb atalmish yangi maktablar tashkil etish orqali amalga oshiradi.

Behbudiy faqatgina mana shu - usuli jadid maktablarining tarafdori bo‘ldi va uning moddiy va ma‘naviy ravnaqi uchun o‘z kuch-quvvatini ayamadi. U bu usulda o‘qitish uchun birinchilar qatori tajriba sifatida Samarqand shahriga yaqin joylashgan Kaptarxona qishlog‘ida yangi usul maktabi ochib, bolalarni o‘qitgan.

Buyuk ma‘rifatparvar maktab va uning asoslarini yaratish ishini bir butun holda qarab, bu yo‘lda ham ko‘p muvaffaqiyatlarga erishgan. Ushbu asoslar esa uning usuli jadid maktablari uchun yaratgan kitob va qo‘llanmalarida aks etadi. Behbudiy yaratgan usuli jadid ruhidagi darsliklari o‘z zamonasidayoq juda mashhur bo‘lib ketgan va ulardan ba‘zilar qayta nashr etilgan.

Behbudiy xalqni savodli, ma‘rifatli qilish uchun jadid maktablarini ishonchli vosita deb bildi. Matbuotni esa ma‘rifatni yoyish quroli sifatida qaradi va uning kuchidan unumli foydalandi. Behbudiyning ma‘rifiy qarashlari, ta‘lim-tarbiya uyg‘unligi uchun kurash masalalari uning o‘zi bevosita ham noshir, ham muharrir sifatida tashkil etgan "Samarqand" gazetini va "Oina" jurnali sahifalarida o‘z aksini topdi.

M.Behbudiy pedagogika masalalariga alohida yondoshdi. Chunki, u faqat o‘z davrining ilg‘or publisisti, jamoat arbobigina emas, balki buyuk murabbiy-pedagog, psixolog sifatida bola tabiatini chuqur o‘rgandi, o‘z o‘quv dasturlariga bolaga har tomonlama puxta bilim beruvchi ilmlarni kiritdi. O‘quv predmetlari qatoridan odob, jug‘rofiya, tabiatshunoslik, til, fiqh, handasa va bir qancha zamonaviy bilimlar o‘rin oldi. Uning ta‘lim-tarbiya tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) Aqliy tarbiya. 2) Axloqiy tarbiya. 3) Diniy tarbiya. 4) Estetik tarbiya. 5) Huquqiy tarbiya.

“YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA HAMKORLIK TA’LIMI MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. 27-noyabr. 2024-yil

M.Behbudiyning ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlarini quyidagi didaktik prinsiplar asosida tashkil qilganini guvohi bo‘lamiz:

1. Ta’limning ongliligi.
2. Ko‘rgazmalilik.
3. Sistemalilik va izchillik.
4. Asoslanganlik.
5. Nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi [2].

Ta’limda, albatta, onglilik talab qilinadi. Muallif davrining ko‘pchilik eski maktab darslari quruq mexanik ravishda yodlashdan iborat edi. Behbudiylar bunday o‘quv sistemasiga qarshi chiqdi. Har bir o‘quvchi ta’limga ongli, ijodiy yondoshishi zarurligini uqtirdi. Shuning uchun ham uning maktabi o‘quvchilari ba’zi maktablardagi 10-15 yillab o‘qib savodi chiqmagan o‘quvchilardan farqli o‘laroq, olti oyda o‘quv-yozuvdan to‘la xabardor bo‘lar edi.

Behbudiylar didaktikasida ko‘rgazmalilik muhim o‘rinda turadi. Chunki, bu jarayon ta’limni ishonchli, aniq va qiziqarli qiladi, bolaning kuzatish qobiliyatini va tafakkurini rivojlantiradi. Behbudiylar o‘z maktabida ko‘rgazmali qurollardan keng foydalangan. Masalan, geografiya darsini o‘tishda dunyo xaritasi, daryo va dengizlar, turli irqdagi odamlarning suratlari va juda katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan globusdan foydalangan.

Behbudiylar tashkil qilgan yangi usuldagi maktabda o‘qitish tizimliliigi va izchilligi bilan ajralib turadi. Chuqur ilmiy asosda qurilganligi, nazariyaning amaliyot bilan uzviy bog‘liqligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ma’lumki, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonning musulmon xotin-qizlari asosan uyda o‘tirar, savod chiqarmoqlilari ham faqat otinoyilar tomonidan tashkil etilgan uy maktablarida amalga oshirilgan edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ayollarni ilmiy qilish masalasiga ham ijobiy munosabatda bo‘lgan. Behbudiylar o‘z qizi Parvinoxni dastlab, usuli jadidda, so‘ngra fransuz tilidan o‘qituvchi yollab, ushbu ilmni mukammal o‘rgatgan. Parvinox ko‘p yillar Samarqand shahri yaqinidagi Qoziqo‘rg‘on qishlog‘ida yoshlarga shu fandan saboq berib kelgan.

Behbudiylar bola tarbiyasida oilaning, maktabning rolini ko‘rsatar ekan, ularning jismoniy, gigiyenik tarbiyasiga ham e’tiborni qaratmoq lozim ekanligini uqtiradi. Bunday qarashlarni uning "Hifzi sihat oila" (Oilaning salomatligini saqlash) maqolasida bayon etiladi. Bolalarni juda yoshlikdan tozalikka o‘rgatmoq, har xilcha yomon illatlardan saqlamoq lozimligini aytadi. Bolalarning yosh vaqtlaridan ishqiy g‘azallar o‘qishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak, deydi. Ayniqsa, qizlar tarbiyasi haqida gapirib, bunda o‘ta ehtiyotkorlik lozim, deydi. 14 yoshga to‘lgan qizlarni

**“YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA HAMKORLIK TA’LIMI MASALALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

Respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. 27-noyabr. 2024-yil

"Bu vaqtlarda nihoyat diqqat ila o‘tkarib, alarni zohiriy va botiniy hol va tarbiyalarini hifzi sihat va sha’riyat taklifig‘a vofiq etmoqlari kerak. Bu holda qizlarni vujudini quvvatsiz etadurgan shay va taomlardan sahlab ham issiq liboslarni kiyg‘izmoq kerak" [1] deydi. Yana muallif, bunday qizlarni to‘y va hashamlarga kamroq olib chiqishlarini tayinlaydi. Chunki ko‘pchilik to‘ylarda yengil tabiat ayollar bo‘lib, har xil bo‘lmag‘ur yallalar, o‘yinlar qilib, qizlar ahloqiga ta’sir etishi mumkin. Muallif o‘sha vaqtlardagi Turkistonda nikohning 17 yoshli yigitcha bilan 14 yashar qizning oilasi umuman mukammal bo‘lmashligini aytadi. Ular bu yoshda bolalik odatlaridan qutulolmagan bo‘ladilar.

Ma’lumki, islom dinining muqaddas manbalari bo‘lmish Qur’oni Karim va Hadisi Shariflarida farzandlar tarbiyasi masalasiga juda ko‘p e’tibor qaratiladi. Shularni hisobga olgan holda M.Behbudiyning pedagogik g‘oyalari ham ota-onalar ma’suliyati, farzandlar tarbiyasi, burchi masalalari, komil farzand tarbiyasi muammosi ham ushbu muqaddas manbalar asosida uning ko‘rsatmalariga suyangan holda e’tirof etiladi. Inson tarbiyasidagi sha’riy qabih va yomon odatlar qoralanadi. Yuksaklikka undovchi amallar bo‘rttiriladi. Bularning hammasi inson ma’naviy dunyosining boyishiga xizmat qiladi. Muallif o‘z davrida turkistonlik farzandlarni chin insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash lozimligini uqtiradi.

M.Behbudiy ma’rifatning, maorif ishlarining faqatgina nazariyotchisi bo‘lib qolmay, balki o‘lka maorifi rivojida amaliy tomondan ham jonbozlik ko‘rsatdi. U Istanbul, Ufa, Qirim, Qozon, Orenburg kabi shahar va mamlakatlarni ko‘rdi va bildi, "yangi usul"ni turkistonliklar orasida birinchilar qatori amalda qo‘lladi. 1905 yilda Behbudiy tomonidan tashkil etilgan maktab Samarqand shahri yaqinidagi Kaptarxona qishlog‘ida edi. Tajriba sifatidagi bu maktabning shaharda emas, balki qishloqda ochilishining boisi bor edi. Chunki shaharda ushbu usulda o‘qitishga qarshi chiquvchilar hukumat tomonidan ham, mahalliy aholi tomonidan ham juda ko‘p edi. Bu usulning muvaffaqiyatiga boshda mahalliy aholi ishonishmaydi. Lekin hamma ish juda silliq ko‘chadi. Ota-onalar bu maktabda bolalarining juda tez savod chiqarayotganligini ko‘rib, hayron bo‘ladi va shubhalana boshlaydilar. Avvallari 3-4 yillarda o‘rganadigan narsalarni bolalar bir yilda o‘rganib olishgan edi. Ko‘pchilik "tez o‘rgangan, tez esidan chiqaradi" deb xulosa qiladi. Lekin shogirdlar olgan bilimlarini unutish o‘rniga, kundan-kunga olg‘a qarab borayotgan edi. Behbudiy boshda shogirdlarga oddiy o‘quv-yozuvni o‘rgatgan bo‘lsa, keyin "Haftiyak"ni

**“YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA HAMKORLIK TA’LIMI MASALALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

Respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. 27-noyabr. 2024-yil

o‘rgatishga kirishadi. Ushbu "Haftiyak"ni o‘qitish jarayonida Behbudiya yangi fikr paydo bo‘ladi. Endi u o‘z o‘quv dasturiga sistemali suratda arab tilini o‘qitishni kiritadi. Bundan tashqari, maktabda arifmetika, geografiya va shu kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitilar edi.

Bu maktab ochiq havoda bo‘lib, oddiy partalar qo‘yilgan joydan iborat bo‘lgan. Shogirdlar soni 40 nafar atrofida bo‘lib, 7 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bolalar edi. Behbudiya maktabni ko‘rish uchun kelgan mahalliy aholi va mullalarni hamkorlikka chaqiradi. Lekin mullalarning bu taklifdan esxonalari chiqib, vahima ko‘tarishadi. Ota-onalarning ko‘pchiligi globusni ko‘rib, o‘qituvchi Behbudiya geografiya darsida "yer aylanadi", "quyosh yerdan katta" degan so‘zlarini eshitib, uni "sha’riatga zid" narsalar haqida tashviqot qilishda ayblay boshlaydilar. Shunda Behbudiya erishgan shuncha muvaffaqiyatlariga qaramay, baribir, o‘ziga bir hamkor, hammaslak, hamfikir kerak ekanligini anglaydi. Uning Samarqand shahri, Jomboy tumani, Rajabamin qishlog‘ida o‘z hisobidan maktab ochib, bolalarga saboq berayotgan Abdulqodir Shakuriy bilan tanishuvi bu hamkorlikni boshlab berdi. Dastlab, Behbudiya Shakuriy maktabiga borib, uning darslariga, o‘quv dasturlariga yordam berib yuradi. Jug‘rofiya fanidan shogirdlarga dars beradi.

Behbudiya ma’rifat yo‘lidagi xizmatlaridan yana biri xalq orasida ziyo tarqatmoq uchun tashkil etgan kutubxonasi edi. Behbudiya birinchi bo‘lib Samarqandda musulmon kutubxonasini tashkil etish fikrini ilm ahllari, ulamolar oldiga qo‘yadi va bu yo‘lda ularni hamjihatlikka chaqiradi. O‘sha davrda bir qancha vaqt faoliyat ko‘rsatib, ancha mashhur bo‘lgan ushbu kutubxona haqida davrning yetakchi nashri sanalgan "Turkiston viloyatining gazetisi" da xabarlar berib borilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiya pedagogik-tashkilotchilik faoliyati ham, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, nazariy-amaliy jabhalarda o‘ziga xos, uzviy ravishda namoyon bo‘ldi.

Mahmudxo‘ja Behbudiya xalqni ma’rifatli qilish masalasini eng birinchi vazifalardan sanar ekan, bu yo‘lda tinmay harakatda bo‘ldi. Ushbu masalani hal qilish yo‘llarining turli vositalarini ishga soldi. Kitoblar yozish, maktab, gazeta, jurnal, kutubxona, nashriyot tashkil etish ishlarini amalga oshirdi. Turkiston ahli yuragidagi asriy jarohat bo‘lgan qullik ahvolidan qutulmoqning yorqin yo‘li, bu - ilm, ma’rifat ekanligini uqtirdi. Bu uqtirishni amalga oshirish uchun Behbudiya xalq ko‘z o‘ngida zabardast targ‘ibotchi sifatida namoyon bo‘ldi. U "Samarqand" gazetisi, "Oina" jurnali orqali ma’rifatni, milliy ruhni tobora o‘zida namoyon bo‘layotgan yangi maorif-maktab ishlarini ko‘ra olmayotganlar, mutaasiblardan uni o‘z ilmi a’moli bilan himoya qildi. [1]

Behbudiya ijodiga nazar tashlar ekanmiz, unda maktab-maorif ishlari targ‘iboti masalasi ham salmoqli o‘ringa ega ekanligini guvohi bo‘lamiz. U Turkiston maorifini rivojlantirish, yangi mak-

“YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA HAMKORLIK TA’LIMI MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. 27-noyabr. 2024-yil

tablar ochish, joylarda taraqqiyparvar ilm ahillari tomonidan ta’sis etilayotgan bilim o‘choqlarini ko‘paytirish uchun targ‘ib-tashviq ishlarini kuchaytirdi. Gazeta va jurnal sahifalarida maorif masalasi muntazam ravishda yoritilib, Turkistonning qaysi viloyati, tumani bo‘lmasin, u yerdagi yangi usul maktablarining rivoji, taraqqiyoti uchun jon kuydirdi. Bundan tashqari, yangi usul maktabi yaratishni ko‘ngliga tugib, bu xayrli ishni boshlamoqchi bo‘layotganlardan o‘z bilimini, maslahatlarini ayamadi.

Yuqorida Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida ma’lumot keltirishdan ko‘zlangan maqsad, uning Turkiston xalqi orasida obro‘-e’tibori yuksak bo‘lganligiga e’tiborni qaratishdir. Mahmudxo‘ja Behbudiyning taniqli shaxs, ayni paytda aholi orasidagi yuksak hurmatiga qaramay 1919 yilda uning taqdirida fojia yuz beradi. Unga va sheriklariga nisbatan shafqatsizlarcha o‘lim hukmini o‘qigan, bu qabih ishga qo‘l urgan qotillar kim bo‘lgan? Nega Mahmudxo‘ja Behbudiy Buxoro amirligi hududiga hamrohlari bilan birga o‘tgandi? O‘zga mamlakat hududida uni o‘lim topishi mumkinligi bilan ogohlantiruvchilar bo‘lmadimi? kabi savollarga javob izlash hamon davom etmoqda.

Birgina uning sababi haqida “behbudiyshunos” olimlar turlicha fikrlarni ilgari suradilar. Bu kabi qarashlarda, 1919-1922 yillarda Birinchi jahon urushi sarhisob qilinayotgan Versal-Vashington muzokaralarida qatnashib, Turkiston taqdirini bildirish maqsadi bo‘lganligi qayd etiladi. Ikkinchi bir qarashda Turkiyadagi Shahzoda orollarida AQSH prezidenti Vudro Vilson boshchiligidagi mazlum xalqlar konferensiyasida ishtirok etish uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy yo‘lga chiqqanligi mulohazasi ham ilgari suriladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy Jeneva (Shveysariya) tomon yo‘lga chiqib, Turkistonda bolsheviklarning zo‘ravonlik siyosatini bildirish uchun xalqaro tashkilotga memorandum bermoqchi bo‘lganligi bilan bog‘liq fikr ham ilgari surilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va madaniy merosini tahlil qilgan ziyolilardan Naim Karimov, Dilorom Alimova, Begali Qosimov, Halim Sayid, Ibrohim G‘ofurov kabilar birlamchi manbalarga asoslangan maqola va tadqiqotlarini xalqimiz va ilmiy jamoatchilik hukmiga havola qildilar. Biroq uning Buxoro amirligi zaminida sirli o‘lim topishi bilan bog‘liq yagona to‘xtamga kelingan emas.

XIX asr oxiri-XX asr taraqqiyparvarlari orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy safarga chiqqan o‘z sheriklari Mardonqul Shomuhhammadzoda va Muhammadqul O‘rinboy o‘g‘li bilan birga Buxoro amirligiga qarashli Shahrisabzda qo‘lga olingan va Qarshiga keltirilib, Qarshi begi Tog‘aybek buyrug‘i bilan zindon yaqinidagi «podsholik» chorbog‘ida amirning Qarshi shahridagi voliysi Nuriddin Og‘aliq tomonidan 1919 yil 25 martda vahshiyona o‘ldirilganligi ishlardan o‘rin olgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy safariga ikki hamrohidan tashqari turk

“YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA HAMKORLIK TA’LIMI MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. 27-noyabr. 2024-yil

fuqarosi Naim Afandi ham sheriklik qilgan. Naim afandi Mahmudxo‘ja Behbudiyning Samarqandda ochgan maktabida muallimlik qilgan. Boshqa mamlakat fuqarosi bo‘lgani uchun uni o‘limga mahkum etishmagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiylar bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar bilan tanishilar ekan, «Qarshi voliysi Nuriddin Og‘aliq» taqdiriga tegishli ma‘lumotlarga to‘la ega bo‘linmadi. Bu esa ushbu masalada bizni bir maqola doirasida fikr bildirishga da‘vat etdi.

BXSRning o‘zbek tilidagi matbuot organi «Buxoro axbori» gazetasining 1923 yil 12 iyulidagi sonida “V.B” imzosi bilan “Jabr va zulm uyasida” nomi bilan, 209-soni (1923 yil 3 oktyabr)da «Musofir» taxallusli bir shaxs «Mufti Behbudiylar va uning rafiqlarining o‘chi olindi» nomli maqolalari[3]ni e‘lon qilingan. Gazetaning mazkur sonida «Buxoro xabarlarini» rukni ostida Mahmudxo‘ja Behbudiyning qabri joylashgan joy bilan bog‘liq ma‘lumot ham byerilgan. “Buxoro axbori”ning 1923 yil 21 sentyabrdagi 204-sonida esa «Nuriddin Xo‘ja Og‘aliq otildi» nomli maqola bosilgan. «Ozod Buxoro»ning 1923 yil 19 sentyabr 2-sonidayoq «Behbudiylar viloyati» xabari e‘lon qilinganligini ham ta’kidlash o‘rinli bo‘lardi[4].

Arab imlosida, eski o‘zbek adabiy tilida chop etilgan “Buxoro axbori” (1920-1923) va “Ozod Buxoro” (1923-1929) gazetalaridagi uch-to‘rt maqola va xabarlar atrofida ilmiy mushohada yuritishni vazifa qilib oldik. Ayniqsa, “Jabr va zulm uyasida” nomli maqalada o‘sha paytda 70 ming aholili Qarshi viloyati ijroiya qo‘mitasining soliq va vaqf idorasi rahbari Nuriddin Xo‘ja Og‘aliq Ahmadxo‘ja o‘g‘lining poraxo‘rligi, aholini talash borasidagi zo‘ravonlikdan iborat noqonuniy ishlari dalillar orqali ochib berilgan. Uning hovlisidan 13 qop shakar, 16 ming olchin gazmol, katta miqdorda oltin tangalar topilgani qayd etilgan. Qarshi viloyatidagi turli mansablarga ham uning qavm-qarindoshlariga ishlagan. Qaynatasi mahalliy ijroiya qo‘mitasining o‘rinbosari, quyovi ushr idorasining boshlig‘i bo‘lib faoliyat yuritgan. Qarshi bozorlari har biridan 5-6 puddan mayiz to‘platib, o‘z foydasiga sotish uchun 600 pud mayizni Buxoro bozorlariga o‘z odamlari bilan yuborgan.

Albatta, Mahmudxo‘ja Behbudiyning vahshiyona va xiyonatkorona o‘ldirilishi xalqimizni larzaga solgan. 1920 yilning aprelida ushbu tabarruk inson tug‘ilgan Samarqand shahrida Buxoro amiri va uning johil amaldorlariga qarshi umumxalq namoyishi bo‘lib, uning ishtirokchilari Behbudiylar qotillarini jazolashni amirdan qat’iy talab qilishgan. Xalqning talabi amir tomonidan inobatga olinmaganligi ushbu insonning fojiali o‘limida amirlik va sovet hukumati maxfiy kelishuvi borligini ko‘rsatadi. Sovet hokimiyati yillarida avj oldirilgan diskriminatsiya siyosatining tig‘i Turkiston mintaqasidagi ziyollarni birin-ketin yo‘qotishga ham qaratilgan edi.

“YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA HAMKORLIK TA’LIMI MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. 27-noyabr. 2024-yil

1920 yil sentyabr oyi boshida amir hukumati ag‘darilib, Buxoro Xalq Sho‘rolar Jumhuriyati tashkil topganidan so‘ng, Samarqandda faoliyat yuritayotgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning shogirdlari, safdosh va maslakdoshlari uning qabrini izlab topish, qotillarni aniqlash harakatiga tushishadi. «1920 yil noyabr oyida Samarqand yoshlari bir komissiya tuzub, Buxoro hukumati vositasi bilan bu komissiyani Qarshiga yuborub, Behbudiyning qabrini izlab topib, o‘ldirilishga sabab bo‘lg‘on odamlarni taftish qildirmoqchi bo‘ldilar. Lekin, u vaqt Qarshi hukumat doirasida ega va sohibnufuz bo‘lib o‘ltirg‘on zot Og‘oliq edi», -degan mazmundagi ma‘lumot keltiriladi gazetada.

Buxoro Xalq Sho‘rolar Jumhuriyati 9 viloyatdan iborat bo‘lib, ushbu viloyatlardan biri Qarshi edi. Qarshida ushr-soliq nazorati idorasining boshlig‘i bo‘lgan Nuriddin Og‘oliq (Nuriddinxo‘ja Og‘aliq Ahmadxo‘ja o‘g‘li-Sh.O.,K.R.) «Samarqand komissiyasining» Qarshidagi faoliyatiga yo‘l qo‘ymaganlar. Qarshi shahridagi hukumat a‘zolari esa uning xohish-irodasiga qarshi borolmaganlar. Bu haqda «Musofir» taxallusli shaxs: «Komissiya bo‘lib borg‘on o‘rtoqlar Qarshi shahrining hukumat boshida o‘ltirg‘on odamlardan chunonam xafa bo‘lib qaytib keldilar»- mazmunidagi fikrlarni keltiradi. Nuriddin Og‘aliq amir davrida e‘tiborli mansabda ishlab, sho‘ro hukumatida ham o‘z mavqeini saqlab qolishiga qanday erishdi ekan? Bu hanuzgacha jumboq bo‘lib qolayapti. Nuriddin Og‘aliq komissiya faoliyatiga yo‘l qo‘ymay «yopiqlik qozon yopig‘ligicha qoladi» deb o‘ylagan. Lekin, BXSr hukumati taftish komissiyasi 1923 yilning kuzida Qarshi viloyati soliq idorasi faoliyatini taftishdan o‘tkazadi. Komissiya Og‘aliq hamda uning safdoshlari katta qonunbuzarlik va jinoyatga qo‘l urganligini aniqlaydi. Nuriddin Og‘aliq va uning hamtovoqlari Hoji Abdulaziz Boqiyev, Mirzo Mahmud Hoji Ibod o‘g‘li kabilar oliy inqilob tribunali sudiga berilgandi.

Nuriddin Og‘aliq soliq idorasining boshida turganida: «hukumatning 42 ming pud bug‘doyini, 20 ming oltin gazmolini o‘g‘irlag‘on. 2000 qo‘y, 20000 qorako‘l terisi bo‘lg‘on, mehnatkashlardan 1000-2000 nafarini yarim och, yarim to‘q holatda o‘z yerlarida ishlatg‘on... Og‘aliqning qilg‘on ishlarini, jabr va zulmlarini, xiyonatlarini yozib, uchig‘a chiqarish mumkin emas», -deb yozadi gazeta. Ushbu shaxsning yuqoridagi qonunbuzarlikka qaratilgan hatti-harakatlariga buyuk mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudi hayotiga zomin bo‘lganligi bilan bog‘liq jinoyati ham qo‘shilgan.

Sud «Nuriddin Og‘aliqni otishga, qolg‘on ikkisini besh yilga qamoqqa olishga qaror qildi. Hukm Registonda bo‘lib, 5 mingga yaqin kishi ishtirok qildi». Og‘aliqni otish hukmi 1923 yil 19 sentyabr kech soat 7.00 da ijro etilgan. Bu haqda gazeta «Behbudi va rafiqlarining o‘ldirilishiga sabab bo‘lg‘on fuqaro hukumatining molig‘a xiyonat qilgan mazkur Og‘aliq 19 sentyabrda (1923

“YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA HAMKORLIK TA’LIMI MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. 27-noyabr. 2024-yil

yil) odil hukumatimiz tomonidan otildi, demak, Behbudiy va rafiqalarining o‘chlari olindi», - deb yozadi. [3]

Shunday qilib, Og‘aliq Behbudiy o‘limidan 4 yil keyin o‘zining jazosini olgan. Qotil o‘limidan so‘ng Buxoro hukumati tomonidan Qarshi viloyati ijroqo‘mi raisi Jo‘ra Zokiriy hamda Qarshi viloyat firqo‘mi Nazarovlar zimmasiga Behbudiy qabrini qidirib topib, uni haykalini o‘rnatish vazifasini yuklagan.

«Buxoro axbori»dagi bu masala bilan bog‘liq xabarni to‘liq keltirishni lozim topdik: «Mahmudxo‘ja Behbudiy qabri oz kunda (tez kunda-Sh.O.,K.R.) topilib ustig‘a haykal ishlanib yotadur. Behbudiy o‘zining o‘rtoqlari bilan hibsonaning yonida vokzalga qarag‘on tarafda hammasi bir qabrg‘a ko‘milg‘onlar. Behbudiy qabrini izlab topib ustig‘a haykal ishlatishga Qarshi viloyat ijroqo‘mi bilan viloyat firqo‘mining boshida o‘ltirg‘on Jo‘ra Zokiriy va Nazarov o‘rtoqlar ko‘p g‘ayrat qilg‘onlar». Lekin, bu mutasaddi shaxslar o‘ziga yuklangan vazifani uddalamaganligi manbalarda qayd qilinadi.

Adabiyotshunos olim Byegali Qosimov Qarshi shahri 1926-1938 yillarda «Behbudiy» nomi bilan atalgan deb ma’lumot beradilar. Lekin, Qarshi shahriga emas, balki viloyatiga «Behbudiy» nomi berilgan. «Ozod Buxoro» gazetasining 1923 yil 19 oktyardagi 2-sonida: «Turkistonning mashhur jamoat xodimlaridan Behbudiyning ismini umrbod (abadiy) qoldirmoq uchun qurultoy (Buxoro Respublikasining 4-qurultoyi-Sh.O., K.R.) Qarshi viloyatini Behbudiy viloyati deb ismlamakka qaror berdi»-deb xabar beradi. Demak, Behbudiy nomi Qarshi viloyatiga 1923 yildayoq berilgan. Chunki «Ozod Buxoro»ning keyingi sonlarida (1923-1925 yillar) Qarshi viloyati haqida fikr bildirilsa, uni «Behbudiy viloyati» deb qayd qilinganligi bilan bog‘liq ma’lumotlar uchraydi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlar bizda bir qator savol va so‘roqlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Avvalo, “Buxoro axbori”da Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan bog‘liq salmoqli maqola yozgan «Musofir»ning asl ism-sharifi kim bo‘lgan? Behbudiy qotili Nuriddin Og‘aliqu 3 yil davomida Buxoro hukumati organlarida ishlab kelishiga qaysi shaxslar homiylik qildi ekan? Qolaversa, ushbu shaxs Buxoro amirligi davrida ham mas’ul vazifalarda faoliyat yuritgan axir. Ayrim ma’lumotlarda “bosmachilar”ga Afg‘onistondan qurol-yarog‘ sotib olishda moddiy madad bergani ham keltiriladi. «Go‘ri Amir» (Samarqand) darvozasi oldida Mahmudxo‘ja Behbudiy bir guruh ziyolilar bilan birga tasvirga tushganlar orasida Og‘ali(?) degan kishining ham tasviri bo‘lib, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasida ushbu fotolavha berilgan[5]. U qaysi Og‘ali? 1917 yil Buxoro arkida aprel manifesti e’lon qilingan paytda nafaqat buxorolik jadidlar, ular bilan birga Samarqand viloyati ijroqo‘mining raisi Mahmudxo‘ja Behbudiyham ishtirok etgan. Amir Said Olimxon jadidlar va

**“YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA HAMKORLIK TA’LIMI MASALALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

Respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. 27-noyabr. 2024-yil

taklif qilingan mehmonlar bilan qo‘l berib salomlashgan. Biroq Mahmudxo‘ja Behbudiyga qo‘l uzatmagan. Nega amir aynan Mahmudxo‘ja Behbudiyga salomlashish uchun qo‘l uzatmagan ekan? Qarshi viloyatining o‘sha paytdagi rahbarlari nega o‘zlariga yuklangan yuqorida qayd qilingan vazifani oxirigacha bajarmadilar? Bu kabi jumboqli bir qator savollar tadqiqotchilarning fikrini o‘ziga jal etishi tabiiy hol. Xullas, “Mahmudxo‘ja Behbudiy va Buxoro muammosi” bilan bog‘liq tadqiqotlarning kelgusidagi vazifalari bu kabi adog‘i yo‘q jumboqlarni yechishga qaratilsa ahamiyatli bo‘lardi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy merosini o‘rganish quyidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi:

1. M.Behbudiy tashkil qilgan usuli jadid maktablari o‘qitish metod va vositalarining hozirgi zamon ta’lim metod va vositalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorligi masalalari.
2. M.Behbudiy ta’lim-tarbiya tizimida “O‘quv yurti, oila va jamoatchilik” hamkorligi yo‘nalishlari.
3. M.Behbudiy tomonidan tashkil etilgan kutubxona va uning xalq ma’naviy qiyofasini o‘zgartishdagi ahamiyati.
4. M.Behbudiy tomonidan izohlangan didaktik prinsiplar va kategoriyalarning ta’lim jarayonini rivojlantirishdagi o‘rni.
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy va Buxoro amiri munosabatlari

M.Behbudiy yaratgan asarlarida aks etgan milliy urf-odatlar, ananalar va insoniy qadriyatlar, asar qaxramonlaridagi mardlik, to‘g‘rilik, adolatparvarlik, vafodorlik, halollik kabi xislatlar bugungi kunda kamol topayotgan yosh avlod ma’naviyatining shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Uning fozil inson, komil inson haqidagi fikrlari, axloq-odob haqidagi g‘oyalari bugun ham jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda qimmatli dasturdir. Ulardan ta’lim-tarbiyani takomillashtirishda hamda o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy-axloqiy shakllantirishda keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar // To‘plovchi, so‘z boshi va izohlar: B. Qosimov. 3- nashri. – T.: “Ma’naviyat”, 2006. – B. 261.
2. Hoshimov K., Nishonov S. va boshqalar. Pedagogika tarixi. -T., “O‘qituvchi”, 1996.
3. Jabr va zulm uyasida. 1923 yil 12 iyul; Musofir. Mufti Behbudiy va uning rafiqlarining o‘chi olindi. «Buxoro axbori», 209-son. 1923 yil 3 oktyabr
4. Nuriddin Xo‘ja Og‘aliq otildi // Buxoro axbori. 204-son. 1923 yil 21 sentyabr; Buxoro xabarlar rukni. Behbudiy viloyati //Ozod Buxoro. 2-son. 1923 yil 19 sentyabr.

**“YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA HAMKORLIK TA’LIMI MASALALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

Respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. 27-noyabr. 2024-yil

69.	MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING HAYOTI VA FAOLIYATI, TA’LIMYIY QARASHLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR <i>Olimov Sh.Sh. - Buxoro davlat universiteti professori, ped. fanlari doktori.</i> <i>Rahmonov K. J. -Buxoro davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi.</i>	361
70.	AQLI ZAIF BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISHLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Bo‘stonova Shahzoda Hikmatillo qizi. Jizzax davlat Pedagogika Universiteti Maxsus pedagogika:Logopdiya 4-bosqich talabasi.</i>	372
71.	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KICHIK EPIK ASARLARNI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOSLIGI VA MA’NAVIY XUSUSIYATLARI. <i>A.Sh.Qahhorova. Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti</i>	378
72.	INKLYUZIV TA’LIMNING TAMOYILLARI VA VAZIFALARI <i>Sulaymonova Aziza Rajabali qizi. Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim (ingliz tili)</i>	387
73.	MUJASSAM (MURAKKAB) NUQSON MAZMUNINING ZAMONAVIY TUSHUNCHASI. <i>Karimova Dilnoza Bahromjon qizi. JDDU Pedagogika va psixolog. fakulteti Logopediya yonalishi 510-21-401-guruh talabasi</i>	392
74.	TARBIYASI QIYIN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA B.BLUM TA’LIM USLUBLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI <i>Jabborov Maqsud Mashrabovich. Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi</i>	397
75.	PSIXIK RIVOJLANISHI ORQADA QOLGAN BOLALAR NUTQIY RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI VA LOGOPEDIK KORREKSIYANING ASOSIY YO‘NALISHLARI. <i>G‘aniyeva Gulshoda Shuhratjon qizi. JDDU Logopediya yonalishi 510-21-401-guruh talabasi</i>	405
76.	KO‘RISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISHLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Baxtiyorova Charos Uchqun qizi. JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti Defektologiya yo‘nalishi 510-21-guruh talabasi</i>	417
77.	RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR KORREKSION -PEDAGOGIK TA’LIMIDA LOGOPEDIK ISH. <i>Uralov Ilhom Komil o‘g‘li. Jizzax davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika va Psixologiya:Logopediya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi</i>	425